

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.ccj.3.1./IARR4293>  
UDC: 347.934(045)(575.1)

# UYUSHGAN GURUHLAR TOMONIDAN SODIR ETILGAN JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA DASTLABKI VA KEYINGI TERGOV HARAKATLARINI O'TKAZISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Shonazarov Abduvali Shonazarovich,**

Qashqadaryo viloyati yuridik texnikum o'qituvchisi

ORCID: 0000-0003-2729-526X

e-mail: abduvalitogayev@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada uyushgan guruhlarini sodir etgan jinoyati uchun tergov qilishda tergov harakatlari o'tkazishning muhim jihatlari yoritilgan. Shuningdek, tergovchi va operativ-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar va xodimlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, dastlabki tergovni amalga oshirish kabi protsessual harakatlarning qanday tartibda bajarilishi keltirilgan. Mazkur tezisning asosiligi jinoyatlarning ko'plab turlari, jumladan, uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish bilan bog'liq. Bunday kriminalistik xususiyat faqat jinoyatlarni tergov qilishda isbotlanganlik bilan emas, balki jinoiy faoliyat belgilarining xususiyatlari, shuningdek, jinoyatni isbotlashda foydalaniladigan elementlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan izohlanadi. Tergovchilar va tezkor xodimlarning uyushgan jinoiy faoliyatning kriminalistik xususiyatini aniqlashi va uni tegishli maxsus turga xos bo'lgan tipik kriminalistik ma'lumotlar bilan solishtirishi bayon etilgan. Shuningdek, jinoiy guruh faoliyatini tergov qilishning dastlabki bosqichida tezkor qidiruv, tergov va ekspertiza muammolarini o'z vaqtida va samarali hal qilishga yordam beradigan kriminalistik usul va vositalardan foydalanish asoslangan.

**Kalit so'zlar:** uyushgan jinoiy guruh, kriminalistik tekshiruv, operativ-qidiruv faoliyati, nazorat-reviziya organlari, tergov materiallari, agentlar, axborot olish.

## ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВОДСТВА ПРЕДВАРИТЕЛЬНЫХ И ПОСЛЕДУЮЩИХ СЛЕДСТВЕННЫХ ДЕЙСТВИЙ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СОВЕРШЕННЫХ ОРГАНИЗОВАННЫМИ ГРУППАМИ

**Шоназаров Абдували Шоназарович,**

преподаватель юридического техникума

Кашкадарьинской области



**Аннотация.** В данной статье освещены важные аспекты следственных действий при расследовании преступлений, совершенных организованными группами. Выражено взаимодействие следователя с органами и работниками, осуществляющими оперативно-розыскную деятельность, порядок совершения процессуальных действий, такого как осуществление предварительного следствия. Справедливость данного тезиса связана с расследованием многих видов преступлений, в том числе с расследованием преступлений, совершенных организованными преступными группами. Объясняется такой криминологический признак не только доказуемостью при расследовании преступлений, но и сведениями о характеристике необходимых признаков преступной деятельности, а также сведениями об элементах, которые используются для доказывания преступления. Утверждается, что следователи и оперативники будут выявлять криминалистическую природу организованной преступной деятельности и сопоставлять ее с типичными криминалистическими данными, характерными для соответствующего конкретного вида. Также выражено использование криминалистических методов и средств, помогающих своевременно и эффективно решать задачи оперативного розыска, следствия и экспертизы на начальной стадии расследования деятельности преступной группы. Выделены криминалистические особенности расследования следователями и оперативниками преступлений организованных преступных групп.

**Ключевые слова:** Организованная преступная группа, уголовный розыск, оперативно-розыскная деятельность, контрольно-ревизионные органы, следственные материалы, агенты, получение информации.

## PECULIARITIES OF PRELIMINARY AND SUBSEQUENT INVESTIGATIVE ACTIONS IN THE INVESTIGATION OF CRIMES COMMITTED BY ORGANIZED GROUPS

**Shonazarov Abduvali Shonazarovich,**  
Teacher, Law College of  
Kashkadarya Region

**Abstract.** This article highlights important aspects of investigative actions in the investigation of crimes committed by organized groups. The interaction of the investigator with the bodies and employees carrying out operational-search activities, the procedure for performing procedural actions, such as the implementation of a preliminary investigation, are expressed. The validity of this thesis is related to the investigation of many types of crimes, including the investigation of crimes committed by organized criminal groups. Such a criminological feature is explained not only by provability in the investigation of crimes but also by information about the characteristics of the necessary signs of criminal activity, as well as information about the elements that are used to prove a crime. It is argued that investigators and operatives will identify the forensic nature of the organized criminal activity and compare it with

*typical forensic data specific to the respective specific type. The use of forensic methods and tools that help to timely and effectively solve the problems of operational search, investigation and examination at the initial stage of investigating the activities of a criminal group are also expressed. The forensic features of investigations of organized criminal groups by investigators and operatives are highlighted.*

**Keywords:** *organized criminal group, criminal investigation, operational-investigative activities, control and audit bodies, investigative materials, agents, obtaining information.*

## Kirish

Tergovchi va operativ-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar dastlabki tergovni optimallashtirishning eng samarali vositalaridan biridir. Ushbu tezisning asosiligi jinoyatlarning ko'plab turlari, shu jumladan, uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish bilan bog'liqdir. Shuningdek, mavjud axborot tanqisligini to'ldirish va tergovchining tergov va boshqa protsessual harakatlarini ta'minlash muhimdir. Bundan tashqari, bu ikki yo'nalish jinoyatlarni tergov qilishda bir-biriga bog'liqdir, chunki axborot tanqisligi muammosini hal qilish esa to'g'ri rejalashtirish va tegishli tergov harakatlarini amalga oshirish muammosini hal qilishga imkon beradi va ushbu tergov harakatlarini amalga oshirishni ta'minlash tergovchining kerakli ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lishiga qaratilgan muxolifat haqida ma'lumot olishni o'z ichiga oladi. Shuning uchun bunday o'zaro munosabatlar har doim jinoyatlarni tergov qilishning barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi. Bu muvaffaqiyatga erishish imkonini beradigan barcha harakatlarning izchilligini ko'rib chiqadi. Ma'lumki, tergovning ko'pgina xususiyatlari jinoiy harakatning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liqligini ko'rsatadi.

Uyushgan jinoyatchilik faoliyati bilan bog'liq jinoiy ishlarni tergov qilishning o'ziga xosligi shundaki, nafaqat tergov harakatlarining o'ziga xos uslubiylatlarini ishlab chiqarish, balki tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini isbotlashda keng foydalanish, ilmiy va texnik vositalardan foydalanish zarurati; shuningdek, protsessual masalalar ham mavjuddir.

## Material va metodlar

Bugungi kunda tergov uyushgan jinoiy guruhlarining sodir etgan jinoyatiga qarshi bir nechta qo'llanma (metodlar) asosida olib boriladi.

1. Metodik qo'llanmalarda tergovga qadar ma'lumotlar bo'lishi kerak.
2. Kriminalistik tekshiruv, uyushgan faoliyati, tekshiruv, tergov qilingan jinoiy ishlar, avval sodir etgan jinoyatlari.

To'g'ri yig'ilgan ma'lumotlar jinoyatni ochishda asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Jinoyatni ochish uchun tergov to'g'ri olib borilishi va tekshiruv ishlari o'z vaqtida amalga oshirilishi kerak. Bu ishning tez va samarali yakun topishini ta'minlaydi. Buning uchun huquq tartibot organlari va xavfsizlik xizmati boshqarmasi o'zaro samarali aloqalar olib borishlari zarur.

Tergovning birinchi bosqichi quyidagilardan iborat:

1. Uyushgan jinoiy guruh huquqni muhofaza qiluvchi organlar kuzatuvda bo'lganmi-yo'qmi (avvalgi qilgan jinoyatlari uchun);
2. Uyushgan jinoiy guruhning jinoyat ishi yuzasidan ushlangan a'zolari haqida ma'lumotlar;
3. Qanday vaqtda (holatlarda) jinoiy faoliyat yuritgan (avvalgi yoki keyingi holatlar).

Birinchi navbatda, operativ tergov-tekshiruv ma'lumotlari (materiallari) jinoyatchilarni qo'lga olishni boshlash uchun aniq maqsad bo'lib xizmat qiladi.

Uyushgan jinoiy guruhning kriminal faoliyati va qanday tashkil topgani aniqlab boriladi. Uyushgan jinoiy guruh qo'lga olingandan so'ng jinoyat joyida guvohlar, jabrlanuvchilar va boshqa gumonlanuvchilar so'roq qilinadi. Agar tergovda jinoyat izlari ma'lum bo'lganda uyushgan jinoiy guruh faoliyatini tergov qilish quyidagi tartib bilan amalga oshiriladi.

Shuni ta'kidlash zarurki, sodir etilgan jinoyatlar va boshqa subyektiv omillar butun tergov davomida asosiy rol o'ynaydi:

1. Uyushgan jinoiy guruh tomonidan qilgan jinoiy ishlarini yopish uchun huquq tartibot organlari, ichki ishlar organlari, ommaviy axborot vositalariga ta'sir o'tkazishga harakat qilish.
2. Guvohlarni qo'rqitish, guvohlarni yolg'on ko'rsatma berish va o'zgartirishga harakat qilish.
3. Jabrlanuvchi va guvohlarni jismonan yo'q qilish.
4. Guvohlarni o'ldirish bilan qo'rqitish, yaqinlariga zarar yetkazish bilan qo'rqitish yoki yo'q qilishga qaratilgan harakatlar.
5. Jinoiy guruhning himoyachilari qonuniy yo'l yoki yolg'on harakatlar bilan tergovga ta'sir qilish.

Quyidagilar jinoyatlarni yopishga qaratilgan harakatlar bo'lib, bu jinoyatchilarning ta'sir ishidir.

1. Tergov-qidiruv ishlarini to'g'ri olib borish, jinoyatchilarga yaxshi muomala qilib, qarshi harakatlar olib borish.
2. Tergov olib borishda uyushgan jinoiy guruh orasiga maxsus agentlar qo'shish. Bu jinoyatni ochishda juda kerakli ma'lumotlar yig'ishga yordam beradi.
3. Guvohlar va jabrlanuvchilarni himoya qilish dasturi bilan ishlash.
4. Jinoyatni ochish uchun maxsus texnikalar yordamida jabrlanuvchi, guvohlar va gumondorlarni kuzatish.
5. Axborotlar chiqib ketishini to'xtatish yoki yo'qotish.
6. Ommaviy axborot vositalaridan tergovga yordam sifatida foydalanish.

### **Taqdqiqot natijalari**

Olib boriladigan barcha harakatlar jinoiy huquq talablari doirasida amalga oshiriladi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, operativ qidiruv natijasida olingan tergov materiallari uyushgan jinoiy guruh sodir etgan jinoyatlarni ochishda qiyinchiliklar tug'diradi. Shuni ham eslatib o'tish kerakki, jinoyatni ochish uchun foydalanilgan tergovdagi ishtirokchilar himoyasi va boshqalar hisobga olinadi. Shunday qilib,



uyushgan jinoiy faoliyatni ochish uchun kuchli malaka va bilim kerak bo'ladi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar malaka, bilim evaziga uyushgan jinoiy guruh jinoyatlariga qarshi kurashadilar.

Uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan qotilliklarni tergov qilishda belgilanadigan holatlarga quyidagilar kiradi: muayyan shaxsning zo'ravonlik bilan o'lishi; jinoyat vositasi to'g'risidagi ma'lumotlar; jinoyat sodir etilgan joy va vaqt; jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko'rish shartlari. Ushbu holatlar hujum obyektiga qarab aniqlashtirilishi mumkin. Olingan ma'lumotlarga asoslanib, tergovchi voqea haqida taxminiy fikr yuritadi va uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning kriminalistik xususiyatlariga asoslanib, jinoiyat ishi qo'zg'atadi va tergovni yuborishni rejalashtiradi, shuningdek, tergovning dastlabki bosqichining shoshilinch chora-tadbirlari ro'yxatini ko'rsatadi.

Uyushgan guruhlar jinoyatlarini tergov qilishning dastlabki bosqichida uchta tipik tergov holati mavjud.

1. Guruh a'zolari – qurol, portlovchi moddalar, zarur texnik vositalarni qo'lga kiritish bilan jinoyat sodir etish uchun faol tayyorgarlik ko'rmoqda.
2. Jinoiy harakatni amalga oshirish davom etmoqda.
3. Uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan jinoiy faoliyat allaqachon yakunlangani haqida fakt mavjud.

Ushbu holatlarning har biri jinoiy harakatning muayyan mexanizmi bilan bog'liq bo'lgan kam qamrovli, shuningdek, jinoyatni aniqlash, bostirish va fosh qilish faktlari bilan tergov holatlarini o'z ichiga olishi mumkin. Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashni jinoyat-protsessual tartibga solish doirasida isbotlash muammosi, ayniqsa, dolzarbdir.

Amalga oshirilgan qilmishning uyushgan guruhlar tomonidan sodir etilganligi to'g'risida axborot olishning samarali vositalaridan biri bo'lgan so'roq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. So'roq qilish keng tarqalgan tergov harakati bo'lib, jinoyatni amalga oshirish maqsadi, sababi va motivi singari murakkab elementlar haqida to'liq ma'lumot bera oladigan vositadir. So'roq qilish predmeti jinoiy, ya'ni aniqlanishi kerak bo'lgan holatlar doirasi, umumiy ko'rinishda isbotlash predmetiga kiradi.

Jinoiy guruhlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha ishlarda so'roq qilishning xususiyatlariga faqat guruhlar tomonidan sodir etilgan jinoyat faktini tasdiqlaydigan ma'lumotlarni aniqlab olish emas, balki guruh haqida, har bir ishtirokchining roli va aybi haqida iloji boricha to'liq ma'lumot olish kiradi.

So'roqni taktik ta'minlash uni amalga oshirish va tuzish usullari, kerak bo'lganda, so'roq rejasini tuzishdan iborat. Bunday reja quyidagi shartlarni hisobga olib tuzilishi zarur:

- 1) tezkor ma'lumotlardan foydalanish ko'zda tutilgan bo'lsa, so'roq qilinuvchiga ma'lumot manbayini aytib qo'yishning oldini olish zarur;
- 2) jinoiy tashkilot ishtirokchilarini, ularning hamjamiyatidagi roldan qat'i nazar, so'roq qilishning murakkabligi bois so'roqning taktik usullarini chuqur o'ylab ko'rish, ularni qat'iy ketma-ketlikda o'tkazish, savolni to'g'ri qo'yish, so'roq qilinuvchining javobini oldindan bashorat qila olish lozim.



So'roq vaqtini aniqlashda guruh a'zolarini so'roq qilish ketma-ketligini tanlash muhimdir. Agar tezkor manbalardan olingan ma'lumotlarga asoslanib, tashkilotning biron-bir a'zosining aybi kamrog'i yoki bardoshsizrog'i ma'lum bo'lsa, u holda so'roqni aynan shu shaxsdan boshlagan samarali hisoblanadi. Odatda buning aksi ro'y berishi mumkin: avval guruh rahbari so'roq qilinadi, undan haqiqiy ko'rsatmalar olishga erishilsa, qolgan sheriklarini so'roq qilish osonroq kechadi.

So'roq vaqtini aniqlashga tergov sirini saqlash ehtiyoji, jabrlanuvchi va guvohlarning xavfsizligini ta'minlash vazifalari kabi bir qator omillar ham ta'sir qiladi. So'roqqa chaqirish usuli ham taktik ahamiyatga ega. Bu yerda ovoza bo'lish, so'roq qilinuvchining so'roqqa kelishiga to'sqinlik qilinishi va hattoki u huquqni muhofaza qiluvchi organlar e'tibori doirasiga tushgani ma'lum bo'lganidan so'ng so'roq qilinuvchini yo'q qilishning ehtimolini inobatga olish zarur. So'roq qilishda magnit va videomagnitofon tasmlarini tayyorlash juda katta ahamiyatga ega.

Jabrlanuvchilar va guvohlarni so'roq qilish muhim ahamiyatga ega. Jabrlanuvchilarni so'roq qilish predmeti ularga nisbatan qilingan tajovuz aniq yoki noaniq bo'lganligiga qarab farqlanadi. Birinchi holatda bu kuch ishlatish, g'arazli va past niyatlarda mulkka qarshi jinoyatlardir; ikkinchi holatda faqat o'g'rilikdan iborat bo'lib, uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan ko'p sodir etiladi.

Jabrlanuvchiga tajovuz aniq holatda ro'y berganda, so'roqda quyidagilar batafsil aniqlanishi kerak: guruh jinoyatini sodir etishda ishtirok etgan jinoyatchilar soni, har birining harakatlari, ayniqsa, o'zlarini tutishi, laqab ishlatganliklari, jinoyat olamiga xos jargondan foydalanganliklari, harakatlarga kim rahbarlik qilganligi, kim nima bilan qurollanganligi, hujum qilganlar hodisa joyini qanday tark etganliklari va h.k. Xuddi shu tartib bo'yicha guvohlar ham so'roq qilinishi lozim, ammo bunda qo'shimcha tarzda ular hodisa vaqtida qayerda bo'lganliklari, jinoyatchi va jabrlanuvchilarning harakatlarini qay holatda kuzatganliklari ham aniqlanadi.

Jabrlanuvchilarni so'roq qilganda, ular qasos, achinish, guruh a'zolaridan faqat biri qo'lga tushganda esa boshqa ishtirokchilar oldida qo'rquv hissiyotlari tufayli yolg'on ko'rsatma berishlari mumkinligini inobatga olish zarur. Jabrlanuvchilar ba'zan guruh ishtirokchilarining barcha jinoiy harakatlari haqida ma'lumot bermay, ovoza bo'lishni xohlamasligini ro'kach qilib, ularni yashiradilar. Misol uchun, bosqinchilik to'g'risida xabar bermaydilar, zo'rlab nomusiga tegish to'g'risida indamaydilar.

Iqtisodiyot sohasida amalga oshirilgan jinoyatlar bo'yicha guvohlarni so'roq qilishning o'ziga xos jihatlariga to'xtaladigan bo'lsak, bunday ishlar bo'yicha nazorat organlari xodimlari, ma'muriyat va ishlab chiqarishning turli soha rahbarlari, qo'riqlash xizmatidagilar, savdo xodimlari va boshqalar so'roq qilinadi. Ularni so'roq qilishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- talon-toroj qilishning tashkilotchisi kim bo'lgan, uning usuli va harakat rejasini kim ishlab chiqqan;
- jinoiy tashkilot qanday shakllangan, har bir ishtirokchi unga qay tariqa jalb etilgan;
- ushbu korxona xodimlaridan tashqari kimlar bu jinoiy tashkilotga a'zo;
- ishtirokchining vazifasi nimalardan iborat;

- jinoiy faoliyatdan tushgan mablag' qanday tartibda taqsimlanadi;
- tashkilotning boshqa a'zolari, xususan, rahbar bunga qanday munosabatda bo'lgan kabi savollar, albatta, aniqlanishi darkor.

Shuningdek, jinoyatni ochishda tergov jarayonida ko'rsatma berishdan voz kechganlarni ko'ndirish, guvoh yoki jabrlanuvchini yolg'on ko'rsatma berishdan qaytarish kabi holatlar uchraydi.

### **Xulosalar**

Ushbu maqolada uyushgan jinoiy guruh tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni dastlabki va keyingi tergov qilishdagi o'ziga xos jihatlar aniqlashtirildi. Shuningdek, uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning kriminalistik xususiyatlari, jinoyatning ushbu turdagi xarakterli belgilari to'g'risidagi o'zaro bog'liq va o'zaro aloqador ma'lumotlar tizimi ko'rib chiqildi. Tezkor qidiruv xodimlarining tergov harakatlarida aniqlanishi lozim bo'lgan protsessual harakatlar amalga oshirilishi ta'kidlandi. Qabul qilingan ma'lumotlarda aks ettirilgan tipik xususiyatlar jinoyat ishi bo'yicha tergovning dastlabki bosqichida tezkor-qidiruv, tergov va ekspert vazifalarini o'z vaqtida va samarali hal qilishga yordam beradigan kriminalistik usul va vositalardan foydalanishni belgilaydi.

### **REFERENCES**

1. Jinoyatlarni tergov qilish metodikasi [Methodology of crime investigation]. Tashkent, Ministry of Internal Affairs Academy of the Republic of Uzbekistan, 2017, p. 184.
2. Kriminalistika [Criminalistics]. Tashkent, 2018.
3. Abdumajidov F. et al. Kriminalistika [Criminalistics]. Tashkent, Adolat Publ., 2003, 362 p.
4. Sottiyeu I.A. Uyushgan guruhlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish [Classification of crimes committed by organized groups]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2012.
5. Chainey S.P., Berbotto A.A. A structured methodical process for populating a crime script of organized crime activity using. OSINT 2021.
6. Ohr B.G. Effective methods to combat transnational organized crime in criminal justice processes.
7. Meretukov G.M. Kriminalisticheskoye obespecheniye rassledovaniya prestupleniy, sovershayemykh organizovannymi prestupnymi gruppami [Forensic support for the investigation of crimes committed by organized criminal groups]. Krasnodar, 2010, p. 212.
8. Kolesnichenko A.N. Nauchnyye i pravovyye osnovy rassledovaniya otdel'nykh vidov prestupleniy [Scientific and legal basis for the investigation of certain types of crimes]. Abstract of Doctor's degree Dissertation. Kharkov, 1967, p. 16.



9. Lozovskiy D.N. Otdel'nyye voprosy kriminalisticheskogo analiza organizovannoy prestupnoy deyatel'nosti [Selected issues of forensic analysis of organized criminal activity]. *Criminalistics and Forensic Activities in Modern Conditions*, 2016, p. 75.

10. Vozgrin I.A. Nauchnyye osnovy kriminalisticheskoy metodiki rassledovaniya prestupleniy [Scientific foundations of forensic methods for investigating crimes]. St. Petersburg, 1993, part 4, p. 27.

11. Zuyev S.V. Obespecheniye bezopasnosti «zashchishchayemykh lits» po delam o prestupleniyakh, sovershayemykh organizovannymi gruppami i prestupnymi soobshchestvami (prestupnymi organizatsiyami) [Ensuring the safety of “protected persons” in cases of crimes committed by organized groups and criminal communities (criminal organizations)]. *Bulletin of the South Ural State University*, 2016, no. 7 (266), pp. 49-53.

12. Lozovskiy D.N. Nekotoryye aspekty ispol'zovaniya kriminalisticheskikh metodov v protsesse protivodeystviya organizovannoy prestupnoy deyatel'nosti [Some aspects of the use of forensic methods in the process of counteracting organized criminal activity]. *Society and Law*, 2015, no. 2 (34), pp. 257–262.

13. Pantyukhina G.A. Vzaimodeystviye sledovatelya i operativnykh sotrudnikov pri rassledovanii prestupleniy po delam organizovannykh prestupnykh grupp [Interaction of the investigator and operational officers in the investigation of crimes in cases of organized criminal groups]. *Russian Legal Journal*, 2014, no. 5, pp. 58–61.

14. Staroverov A.V. K voprosu o ponyatii organizovannoy prestupnosti [To the question of the concept of organized crime]. *Bulletin of the Moscow University of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2017, no. 1, pp. 171–176.

15. Shalagin A.Ye., Shlyakhtin Ye.P. Problemy preduprezhdeniya i protivodeystviya organizovannoy prestupnosti [Problems of preventing and counteracting organized crime]. *Bulletin of the Kazan Law Institute of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2015, no. 2 (20), pp. 89–96.



# KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2023-yil 1-son

VOLUME 3 / ISSUE 1 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.CCJ.3.1

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**BOSH MUHARRIR:**

**N. Salayev**

TDYU Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası professori, yuridik fanlar doktori – bosh muharrir

**BOSH MUHARRIR:**

**Y. Kolenko**

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig'i – bosh muharrir

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI**

**D. Bazarova**

TDYU Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor – bosh muharrir o'rinbosari

**Mas'ul muharrir:** K. Hakimov

**Muharrirlar:** F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik, Sh. Yusupova

**Musahhih:** M. Patillayeva

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Veb-sayt:** [www.ccj.tsul.uz](http://www.ccj.tsul.uz)

**E-mail:** [criminologyjournal@tsul.uz](mailto:criminologyjournal@tsul.uz)

**Obuna indeksi:** 1386.

Jurnal 2023-yil 29-aprelda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 7,44 b.t. Adadi: 100. Buyurtma: № 20.

TDYU tipografiyasida chop etildi.

**ISSN 2181-2179**

© Toshkent davlat yuridik universiteti